

The Impact of Poverty and Social Inequality on Spiritual Stability: Modern Approaches

Ma'naviy Barqarorlikga Kambag'Allik Va Ijtimoiy Tengsizlikning Ta'siri: Zamonaviy Yondashuvlar

Значимое Влияние Бедности И Социального Неравенства На Духовную Устойчивость: Современные Подходы.

Raxmonova Nigina Tolibovna, ²Mirzayeva Moxira Kurbanovna, ³Raxmatova Nargiza Akbar qizi, ⁴Yazdonova Saxiba Kurbanovna, ⁵Yazdonov Ulugbek Tashmurotovich, ⁶Qarshi davlat universiteti

⁷Ne'matova Rayxona Jasurbek qizi, ⁸Nargiza Abdivaliyevna Askarova.

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti niginakhan.

² Candidate of Philosophy, Associate Professor, Sharof Rashidov Samarkand State University, Uzbekistan

³Professor of Samarkand branch of Tashkent State Economic University, Doctor of Philosophy.

⁴Doctor of Philosophy (DSc), Professor at the Chair of Digital Technologies, Tourism and Humanitarian Sciences, ⁵Samarkand Agroinnovations and Research University.

⁶Tashkent State University of Economics Samarkand Branch,

⁷Faculty of Economics 2st year student.

⁸Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Tashkent State Medical University; Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology.

ANNOTATION: This article analyzes the phenomena of poverty and income inequality from economic and philosophical perspectives. Information is provided on the essence of poverty and income inequality, their interconnections, the factors influencing them, and their relationship with spiritual stability. Issues of the fairness of resource distribution in society, social equality, and human well-being are discussed. Furthermore, the causes of the growing inequality in modern economic systems and its socio-spiritual consequences are highlighted.

KEY WORDS: Poverty, economics, income inequality, Gini coefficient, solutions, social justice, sustainable development, prosperity, economic development, philosophical approach, policies.

KIRISH

Kambag'allik hozirgi kunda juda ham dolzarb muammo ekani hech kimga sir emas. Zamonaviy globallashtirish sharoitida bu masala yanada murakkablashib, nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy va axloqiy muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Falsafiy jihatdan kambag'allik faqat moddiy yetishmovchilik emas, balki imkoniyatlar cheklanganligi, erkinlikning torayishi sifatida qaralsa, iqtisodiy nuqtai nazardan kambag'allik – bu insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli daromadga ega emasligi bilan belgilanadi.

Daromadlar tafovuti jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytirib, barqaror rivojlanishga to'stinlik qilmoqda. Butun dunyo mamlakatlari uzoq davrlar mobaynida bu muammo bilan kurashib kelyapti. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 1 milliard 100 million aholi kambag'allikda umr kechirmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy rivojlanish bo'yicha Ikkinchi Butunjahon sammitidagi nutqida keltirilgan: "Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy dasturlariga resurslarni keng jalb etish maqsadida kambag'allikka qarshi kurashishning yangi moliyaviy arxitekturasini yaratish vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Bu borada ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, kambag'allikni qisqartirishga amaliy yordam beradigan Global ijtimoiy adolat fondini ta'sis etishni taklif etamiz",¹ – degan fikrlari asosida muammoning dolzarbligi ochiqilanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada muammo mohiyatini ochiqqlash uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, Jini koeffitsiyenti orqali daromadlarni baholash, dinamik tahlil metodlaridan foydalanildi. To'liqroq tushunishimiz uchun kambag'allik o'zi nima ekanini bilishimiz kerak.

Kambag'allik – bu inson yoki bir oilaning daromadi yashash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim olish va boshqalar) to'liq qondirishga yetmasligiga aytiladi yoki aholi daromadi, iste'mol imkoniyati va resurslarga ega bo'lish darajasi pastligini ifodalovchi atama deyish ham mumkin.² Bir so'z bilan aytganda kam daromad tufayli vujudga keladigan ijtimoiy holat va bir qancha muammolarni keltirib chiqaruvchi omil bu – kambag'allikdir. Qashshoqlik darajasining yuqori bo'lishi hamisha dolzarb masala bo'lib kelgan va asosan uning 3 ta turi keltirib o'tiladi: mutlaq kambag'allik (inson eng zarur ehtiyojlarini ham qondira olmaydigan darajadagi qashshoqlik), nisbiy kambag'allik (jamiyatdagi o'rtacha turmush darajasiga nisbatan ancha past yashash darajasi)³, ko'p o'lchovli kambag'allik (faqat pul bilan emas, balki ta'lim, sog'liq, yashash sharoiti kabi ko'plab omillar bilan o'lchanadi)⁴. Qaysi turda bo'lmasin, turli omillar jamiyatda qashshoqlikka sabab bo'ladi. Masalan: ishsizlik, ta'lim darajasining pastligi, iqtisodiy rivojlanish pastligi, sog'liq bilan bog'liq muammolar (jamiyatda nogironligi va mehnatga yaroqsiz qiluvchi kasalligi borlar ishlay olmaydi), tabiiy ofatlar va daromadlar tengsizligi. Agar bu kabi muammolarning oldi olinmasa, kambag'allik darajasining o'sib borishi o'z navbatida bir qancha yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan iqtisodiy rivojlanish sekinlashishi, hayot sifatining pasayishi, sifatli ta'lim imkoniyatlari cheklanishi, jinoyatchilik va huquqbuzarlik, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi va boshqalar⁵.

Masalaning mohiyatiga yetish uchun qashshoqlikning ham sabablari, ham natijalari qatoridan o'rin egallagan daromadlar tengsizligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

¹ YuzNews <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ijtimoiy-rivojlanish-boyicha-ikkinchi-butunjahon-sammitidagi-nutqi>.

² Azamaliyeva M. "Kambag'allik tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy asoslari". <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/13215>

³ "Types of Poverty" (Perlego) <https://www.perlego.com/index/social-sciences/types-of-poverty>

⁴ Multidimensional poverty : an analysis of definitions, measurement tools, applications and their evolution over time through a systematic review of literature up to 2019 <https://link.springer.com/article/10.1007/s11135-023-01792-8>

⁵ World Bank. *Poverty Overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview>

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Understanding and Measuring Poverty*. <https://www.oecd.org/social/poverty/> United Nations Development Programme (UNDP). *Multidimensional Poverty Index*. <https://hdr.undp.org/en/2020-MPI>

Parij Iqtisodiyot muassasasi professori Thomas Piketty “Yigirma birinchi asrdagi kapital” asarida: “Kapitalning daromadlilik darajasi ishlab chiqarish va daromadlarning o’sish sur’atlaridan oshib ketganda, kapitalizm avtomatik ravishda o’zboshimchalik bilan va barqaror bo’lmagan tengsizliklarni keltirib chiqaradi”⁶ –deb ta’kidlaydi. Thomas Piketty o’z tadqiqotlarida kapital daromadlarining o’sishi mehnat daromadlariga nisbatan tezroq ekanligini asoslab, bu holat tengsizlikni kuchaytirishini ko’rsatadi. Yigirma birinchi asrdagi kapitalning zahirida aldamchi darajada oddiy, ammo xavotirli formula yotadi: $r > g$, bu yerda r - kapitalning daromadlilik darajasi va g - iqtisodiy o’sish sur’ati. Agar r uzoq muddatda g dan oshsa, boylik daromaddan tezroq to’planadi, bu esa doimiy ravishda oshib borayotgan tengsizlikka olib keladi. Piketty ta’kidlashicha, zamonaviy kapitalizm hech qanday aralashuvsiz o’z-o’zidan meros bo’lib qolgan boylik hukmronlik qiladigan, demokratiya va iqtisodiy adolatga tahdid soladigan “patrimonial kapitalizm”⁷ tomon siljiydi. Bu esa o’z-o’zidan jamiyatda yana ijtimoiy tengsizlikning oshib borishiga asos bo’ladi.

Anglashilganidek, daromadlar tengsizligi deganda aholining boy va kambag’al qatlamining daromatlari teng kelmasligi, notekis taqsimlanishi, ya’ni ular o’rtasidagi farq doimiy saqlanib turishiga aytiladi. Bunga ta’sir qiluvchi omillarga turli qatlamlarning ta’lim darajasidagi farqi, kasb va malakasidagi farq, ish imkoniyatlari teng emasligi, egalik qilinayotgan mulk va kapital o’rtasidagi farq va hududiy rivojlanishdagi tengsizlik kabilarni kirgizsak bo’ladi⁸. Bu borada iqtisodchi-faylasuf Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan “imkoniyatlar yondashuvi” muhim ahamiyatga ega bo’lib, unda kambag’allik insonning imkoniyatlardan foydalana olmasligi bilan izohlanadi. Uning “Qashshoqlik va ocharchilik: huquqiy mahrumlik haqida ocherk” (1981) asari ish haqining pasayishi, ishsizlik, oziq-ovqat narxining oshishi va oziq-ovqatning samarasiz taqsimlanishi ochlikka olib kelishi mumkinligini ko’rsatdi. Uning qarashlari siyosatchilarni oziq-ovqat narxlarini barqaror saqlashga undadi⁹.

Umuman olganda boy qatlam borgan sari rivojlanib, yashash sifatini kundan kunga yaxshilab borayotgan bir paytda, jamiyatdagi kambag’al qatlamning ahvoli nochorlashib borishi hech qaysi davlatning iqtisodiy farovonlikka erishishiga yo’l qo’ymaydi. Bunday mamlakatda boy aholining daromadi qanchalik ko’p bo’lmasin, mamlakat boy hisoblanmaydi.

TADQIQOT NATIJASI

Hozirgi vaqtda kambag’allikka ko’plab boshqa omillar bilan birgaikda daromadlar tengsizligi qay darajada yuqori ta’sir ko’rsatayotganini ko’rish uchun statistik ma’lumotlar bilan tanishib chiqishimiz kerak.

Daromadlar o’rtasidagi tengsizlikni o’lchashda Jahon Banki Jini (Korrado Jini tomonidan ishlab chiqilgan) koeffitsiyentidan foydalanadi. Bu usul daromad darajasi kabi chastota taqsimoti qiymatlari orasidagi tengsizlikni $[0;1]$ oralig’ida, yoki 0 dan 100% gacha o’lchaydi. Agar Jini koeffitsiyenti 0 da turgan bo’lsa, bu barcha aholidagi daromad yoki boylik qiymatlari bir xil tengligini bildiradi. Lekin mazkur koeffitsiyent 1 yoki 100% ni ko’rsatsa, yuqoridagi qiymatlar orasidagi eng yuqori darajadagi tengsizlikni tushunishimiz kerak, ya’ni bitta shaxs (kichik guruh) barcha boylikka ega, qolganlarda esa hech narsa yo’q¹⁰.

Dunyo xaritasida Jini koeffitsiyenti (%) 2022 (Wikipedia: Jahon Banki hisoboti)

⁶ Thomas Piketty. *Capital in the Twenty-First Century*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. –696 p.


⁷ "Patrimonial kapitalizm" - bu iqtisodiy tizim bo’lib, unda boylik va kapital birinchi navbatda meros orqali (otadan bolalarga) o’tadi va iqtisodiy hokimiyat kichik elita qo’lida to’planadi.

⁸ World Bank. *Poverty Overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview>


Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Understanding and Measuring Poverty*. <https://www.oecd.org/social/poverty/1>

⁹ <https://www.britannica.com/summary/Amartya-Sen>

¹⁰ Wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/Gini_coefficient



Endi esa diqqatimizni tengsizlik yuqori ko'rsatkichda bo'lgan hududlarning qashshoqlik darajasiga qaratsak



Jahon banki tadqiqoti 2024

Kuniga 2,15\$ dan kam daromad

Yuqoridagi 2 manbadan ma'lumki, daromadlar teng bo'lmagan hududlarda kambag'allik ham tez suratlarda o'sib borayotgan muammolardan biri bo'lib saqlanib turibdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, daromadlar tengsizligi yuqori bo'lgan hududlarda kambag'allik darajasi ham yuqori bo'lib qolmoqda. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida Jini koeffitsiyenti yuqori bo'lib, aholining katta qismi past daromad bilan yashaydi. Faqat Janubiy Afrika Respublikasi misolida qaraydigan bo'lsak, Jini koeffitsiyenti bo'yicha bu mamlakatda daromadlar tengsizligi 47-52% atrofida 2022-yil holatiga ko'ra qayd etilgan. (2008-2009-yillarda 63-70% bilan dunyodagi eng yuqori foizni ko'rsatgan).

Yangi soliqlar tizimini joriy qilish bilan bu ko'rsatkich tushgan bo'lsada, talab darajasida deb baholashga hali erta. Mamlakatda kuniga 2.15 \$dan kam daromad topadiganlar soni esa aholining yarmidan ko'pini tashkil qiladi¹¹. Bundan kelib chiqadiki, kambag'allik va daromadlar tengsizligi bir-biriga bog'liq. Hududida qashshoqlik darajasini kamaytirish uchun, har bir mamlakat daromadlar tengsizligiga qarshi kurashishi kerak.

Falsafiy jihatdan qaraganda daromadlar tengsizligi masalasi ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog'liq. John Rawls nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi tengsizlik faqat eng kam ta'minlangan qatlam manfaatiga xizmat qilgandagina oqlanishi mumkin. Bu yondashuv zamonaviy davlat siyosatida ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Uning fikricha, jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklar mutlaq tenglikni talab qilmaydi, lekin ular hamma uchun teng imkoniyatlar sharoitida bo'lish, va ayniqsa, eng kambag'allarning farovonligini oshirishi zarurdir¹². O'zbekiston miqyosida qaraydigan bo'lsak, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha mamlakatimizda juda ko'p islohotlar olib borilgan va statistik ma'lumotlarga qarab bu islohotlar samarali bo'lgan deb ayta olamiz.

O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish borasida ijobiy natijalarga erishilgan.¹³ Biroq daromadlar tengsizligi ortib borayotgani qayd etilmoqda. Masalan, 2023-yilda Jini koeffitsiyenti 0,31 dan 0,35 gacha oshgan. Eng boy qatlam daromdlari tezroq o'sayotgani kambag'allikni kamaytirish jarayonini sekinlashtirmoqda.

O'zbekistonda 2015-2022-yillarda kambag'allik darajasi 2 barobarga qisqarib, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yaxshi ko'rsatkichlardan birini qayd etgan. Xususan, mamlakatda kambag'allik darajasi 2015-yildagi 36 foizdan 2022-yilda 17 foizgacha pasaygan. Bu ko'rsatkich Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi umumiy natijalarga nisbatan yaxshiroq. Ushbu davrda umumiy miqyosdagi ko'rsatkich 13 foizdan 8 foizgacha kamaygan. Jahon banki o'z blogida esa O'zbekistondagi ko'rsatkich 2021-yil 17%dan 2023-yilga kelib 11%ga tushganini ta'kidlab o'tgan:

“Uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi qashshoqlikni kamaytirishning asosiy omili bo'ldi. Ish haqining o'sishi kambag'allikni qisqartirish bo'yicha erishilgan yutuqlarning 60 foizini tashkil etdi. Keyingi eng muhim omil ijtimoiy transfertlardir, chunki hukumat aholining ayrim guruhlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy dasturlarni modernizatsiya qildi va kengaytirdi. Shu bilan birga, pensiya ta'minotining yaxshilanishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi”, – deyiladi JB blogida.

Lekin shunga qaramay, Jahon banki ekspertlari tengsizlik darajasining ortib borayotganini qayd etgan. Bu esa qashshoqlik darajasini kamaytirish sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Daromdlarning o'sishi asosan aholining boy qatlamlari orasida yuz bergan.

2023-yilda Jini koeffitsiyenti 0,31 punktdan 0,35 punktga ko'tarilgan. Natijada kambag'allik darajasi 5,5foizga emas, balki 3,1 foizga kamaygan. Qayd etilishicha, 2022-2023-yillarda aholining 10 foiz eng kambag'al qatlamlari daromadi atigi 6 foizga o'sgan, shu bilan birga 10 foiz eng boy qatlamning daromadi 30

¹¹ Wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/Gini_coefficient

¹² Stanford Encyclopedia of Philosophy – “John Rawls” bo'limi. <https://plato.stanford.edu/entries/rawls/>

¹³ **World Bank.** Uzbekistan Poverty Assessment / Country Economic Updates. Washington, D.C.: World Bank Group, 2022–2023. Available at: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

foizdan ko'proqqa oshgan. Shunday qilib, boy fuqarolar boylik darajasining yuqori o'sish sur'atlari iqtisodiy tengsizlik muammosini chuqurlashtirmoqda va qashshoqlik darajasini kamaytirishga to'stinlik qilmoqda¹⁴.

MUNOZARA Tadqiqot natijalari, daromadlar tengsizligi yuqori ko'rsatkichda bo'lgan hududlar kambag'allik darajasi bo'yicha ham yetakchilik qilishini va tengsizlikni to'xtatmasdan qashshoqlikka qarshi kurashish kutilgandek natija bermasligini ko'rsatadi. Kambag'allik va ijtimoiy tengsizlikning ortishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki jamiyatdagi o'zaro ishonch, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kambag'allik va tengsizlik jamiyatda bir qator ijtimoiy oqibatlarni yuzaga keltiradi:

- ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi;
- jinoyatchilik darajasining oshishi;
- sog'liq va ta'lim sifatining pasayishi;
- ijtimoiy ishonchning susayishi va hok.

Bu jarayonlar jamiyatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik aholining iqtisodiy imkoniyatlarini cheklash orqali ta'lim, ijtimoiy ishonch va fuqarolik mas'uliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida jamiyat ma'naviy barqarorligini susaytirib, barqaror rivojlanish uchun xavf tug'diradi. Aksincha, samarali davlat siyosati va ijtimoiy himoya choralari ushbu salbiy ta'sirlarni yumshatishi mumkin.

Butun dunyo mamlakatlari bu muammoni hal qilish uchun turli iqtisodiy-falsafiy yo'llardan foydalanish kerakligini tavsiya berishadi.

– Soliq siyosatini (Fiskal siyosat) takomillashtirish mazkur muammoni qisqartirishga yordam berishi mumkin. Bu siyosat o'z ichiga progressiv soliq tizimini, ya'ni daromadi yuqori bo'lgan qatlam vakillariga yuqoriroq soliq stavkalarini belgilash va soliqdan tushgan mablag'larni kam ta'minlanganlarni qo'llab quvvatlashga yo'naltirishni o'z ichiga oladi¹⁵.

– Ta'lim va inson kapitaliga investitsiyalar kiritish: maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish va kambag'al oila farzandlari uchun oliy ta'lim uchun grantlar ajratish yoki hozirgi kunda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga o'qitish orqali aholining daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy himoyani kuchaytirish kerak. Ijtimoiy nafaqalarni faqat haqiqatdan yordamga muhtoj qatlamga yetib borishini ta'minlash yaxshigina samara beradi.¹⁶

Bundan tashqari shartli pul o'tkazmalar usulidan foydalanish ham ancha samarali bo'ladi, aniqrog'i, kam taminlangan oilalar farzandlari uchun ta'lim va tibbiy ko'rikdan o'tkazish sharti bilan pul yo'naltirish maqsadga mivofiqdir. Bu tajriba Braziliyada sinab ko'rilgan¹⁷.

Mehnat bozorida har bir ishchining huquqi himoyalaniishi kerak va ular munosib yashash va ish sharoiti bilan ta'minlanishi kerak. Buning uchun hukumat tomonidan hamma narsa hisobga olingan holda eng kam ish haqi joriy qilinishi zarurdir. Kam ta'minlangan oilalarga o'z bizneslarini boshlash uchun moliyaviy yordam berish ham muammoni kamaytirishga yordam beradi. Ish o'rinlarini yaratish bilan birga dehqonchilik xo'jaliklari va tomorqalardan samarali foydalanish uchun kam ta'minlangan dehqonlarga uzoq vaqtgacha ijaraga berish ham

¹⁴ <https://kun.uz/news/2024/05/11/iqtisodiy-tengsizlikning-kuchayishi-ozbekistonda-kambag'allikni-qisqartirish-suratini-sekinlashtirdi-jahon-banki>

¹⁵ World Bank. *The Distributional Impact of Fiscal Policy*. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/publication/the-distributional-impact-of-fiscal-policy>

¹⁶ World Bank. *Human Capital Project* <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>. UNDP. *Human Development Report* <https://hdr.undp.org>

¹⁷ <https://www.worldbank.org/en/results/2020/04/22/strengthening-conditional-cash-transfers-and-the-single-registry-in-brazil>

maqsadga muvofiq. Kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan siyosatlar daromadlar tengsizligini yumshatish choralari bilan uyg'unlashtirilmasa, ularning uzoq muddatli samaradorligi cheklangan bo'lib qolishi mumkin.

Muammoni hal etishning falsafiy jihatiga e'tibor qaratib aytish mumkinki, jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat va birdamlik tamoyillarini mustahkamlash, ma'naviy barqaror muhitni yuzaga keltirish muhim natijalarni olishga asos bo'ladi.

Umuman, ushbu tadqiqotda kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar (jumladan, Jini koeffitsienti) bilan ma'naviy-ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi. Shuningdek, tadqiqotdagi yangilik O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosati va daromadlar tengsizligining ma'naviy barqarorlikka ta'siri o'zaro bog'liq holda baholangani hamda ularni kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilganida ham namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Daromadlar tengsizligi yuqori bo'lgan hududlarda qashshoqlik darajasi ham nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki daromadlarni taqsimlashda adolatni ta'minlash orqali ham qashshoqlikni kamaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

2. Nazariy jihatdan bu muammo nafaqat iqtisodiy yondashuvlar, balki falsafiy tushunchalar – ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inson qadr-qimmatini tamoyillari bilan ham izohlanadi. Jumladan, J.Rolsning "adolat nazariyasi" va A.Senning "imkoniyat yondashuvi" qashshoqlikni nafaqat daromadning kamligi, balki insonning real imkoniyatlardan foydalana olmasligi sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

3. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni kamaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, daromadlar tengsizligining kuchayishi bu jarayonning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, qashshoqlikni barqaror qisqartirish nafaqat ijtimoiy yordamni, balki tizimli iqtisodiy islohotlarni ham talab etadi.

Amaliy takliflar:

1. "Ma'naviy barqarorlik indeksi"ni ishlab chiqish. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda jamiyatdagi ishonch, fuqarolik faolligi va ijtimoiy birdamlikni baholaydigan milliy indikator joriy etish taklif etiladi.

2. Daromadlar tengsizligini muntazam monitoring qilish. Jini koeffitsiyenti va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida hududlar kesimida tahlil o'tkazib, davlat siyosatini shu ma'lumotlarga tayangan holda shakllantirish tavsiya etiladi.

3. Ta'lim olishda teng imkoniyatlarni kengaytirish. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun grantlar, stipendiyalar va bepul kasbiy ta'lim dasturlarini kengaytirish.

4. Kambag'al hududlarda maqsadli ta'lim dasturlarini kengaytirish. Ayniqsa yoshlar uchun kasbiy tayyorgarlik, raqamli ko'nikmalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali teng imkoniyatlarni oshirish mumkin.

5. Ijtimoiy himoya tizimini maqsadli yo'naltirish. Imtiyozlar va yordamlar faqat real muhtojlarga yetib borishini ta'minlash uchun raqamli monitoring va yagona ijtimoiy reyestri takomillashtirish.

6. Eng kam ish haqi siyosatini takomillashtirish. Ish uchun munosib ish haqini ta'minlash orqali daromadlar nomutanosibligining haddan tashqari kengayishiga yo'l qo'ymaslik. 7. Ijtimoiy hamjihatlik va mas'uliyatni kuchaytirish. Ma'naviy barqaror jamiyatda hamjihatlik madaniyatini, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kambag'allik va daromadlar tengsizligi faqat iqtisodiy emas, balki chuqur falsafiy muammo hamdir. Uni hal qilish uchun iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda adolat, tenglik va inson qadr-qimmatiga, ma'naviy barqaror muhitni shakllantirishga asoslangan yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. YuzNews <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ijtimoiy-rivojlanish-boyicha-ikkinchi-butunjahon-sammitidagi-nutqi>.
2. Azamaliyeva M. “Kambag‘allik tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy asoslari”.
<https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/13215>
3. “Types of Poverty” (Perlego) <https://www.perlego.com/index/social-sciences/types-of-poverty>
4. Multidimensional poverty : an analysis of definitions, measurement tools, applications and their evolution over time through a systematic review of literature up to 2019 <https://link.springer.com/article/10.1007/s11135-023-01792-8>
5. World Bank. *Poverty Overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview>
- Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Understanding and Measuring Poverty*.
<https://www.oecd.org/social/poverty/1>
- United Nations Development Programme (UNDP). *Multidimensional Poverty Index*. <https://hdr.undp.org/en/2020-MPI>
6. Thomas Piketty. *Capital in the Twenty-First Century*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. –696 p.
7. World Bank. *Poverty Overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview>
- Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Understanding and Measuring Poverty*.
<https://www.oecd.org/social/poverty/1>
8. <https://www.britannica.com/summary/Amartya-Sen>
9. Wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/Gini_coefficient
10. Wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/Gini_coefficient
11. Stanford Encyclopedia of Philosophy – “John Rawls” bo‘limi. <https://plato.stanford.edu/entries/rawls/>
12. **World Bank**. Uzbekistan Poverty Assessment / Country Economic Updates. Washington, D.C.: World Bank Group, 2022–2023. Available at: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
13. <https://kun.uz/news/2024/05/11/iqtisodiy-tengsizlikning-kuchayishi-ozbekistonda-kambagallikni-qisqartirish-suratini-sekinlashtirdi-jahon-banki>
14. World Bank. *The Distributional Impact of Fiscal Policy*. Washington, DC: World Bank.
<https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/publication/the-distributional-impact-of-fiscal-policy>
15. World Bank. *Human Capital Project* <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>. UNDP. *Human Development Report* <https://hdr.undp.org>
16. <https://www.worldbank.org/en/results/2020/04/22/strengthening-conditional-cash-transfers-and-the-single-registry-in-brazil>